

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

BEKCHANOV DONIYOR BAXRAMOVICH

**XORAZM JADIDLARI FALSAFASIDA MILLIY TARAQQIYOT
MASALALARI**

09.00.03 - Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philosophical sciences**

Bekchanov Doniyor Bahramovich

Xorazm jadidlari falsafasida milliy taraqqiyot masalalari 3

Бекчанов Дониёр Бахрамович

Вопросы национального развития в философии джадидов Хорезма..... 23

Bekchanov Doniyor Bahramovich

Problems of national development in the philosophy of the Khorezm jadids 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 49

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

BEKCHANOV DONIYOR BAXRAMOVICH

**XORAZM JADIDLARI FALSAFASIDA MILLIY TARAQQIYOT
MASALALARI**

09.00.03 - Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/Fal616 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xajiyeva Maksuda Sultanovna

falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ruzmatova Gulnoz Miraxrarovna

falsafa fanlari doktori, professor

Alimov Akbar Narboyevich

falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat chet tillar instituti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.02.02 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil "_____" _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (8366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (8366) 239-11-40; e-mail: rektor@samdu.uz Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Bosh bino, 1-qavat, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№_____-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (8366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (8366) 239-11-40).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "_____" _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil "_____" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.Sh.Negmatova

Ilmiy darajalar beruvchi

ilmiy kengash raisi,

falsafa fanlari doktori (DSc), professor

X.A.Djurakulov

Ilmiy darajalar beruvchi

ilmiy kengash kotibi,

falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.R.Samadov

Ilmiy darajalar beruvchi

ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,

falsafa fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kuzatilayotgan globallashuv jarayoni dunyo mamlakatlari oldiga o'zining barqaror milliy taraqqiyot yo'lini belgilash, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida chuqur islohotlarni amalga oshirishni dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo'ymoqda. Ushbu muhim vazifani amalga oshirishda har bir mamlakat o'zining milliy qadriyatlari, tarixiy rivojlanishi va potensial imkoniyatlarini hisobga olgan holda yondashishi zarurligini ko'rsatmoqda. Bu kabi maqsadlarga erishishda jadid ma'rifatparvarlarining barcha sohalarni modernizatsiyalash g'oyalari, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy va gumanistik qarashlaridan asos sifatida foydalanishni hisobga olib, jamiyat a'zolarining milliy o'zligini saqlab qolish, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarni chuqur idrok etishiga hamda mamlakatni yuksaltirishga doir g'oyalarini keng jamoatchilikka transformatsiyalash mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda.

Dunyo miqyosida bugungi kunda jadidlar falsafasini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan ko'plab ilmiy-nazariy va amaliy-fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, marifatparvarlarning jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlantirish, demokratik taraqqiyot modellarini aniqlash, milliy o'zlikni anglash, ma'rifatparvarlik g'oyalarining yoshlar tarbiyasidagi o'rnini tadqiq qilish, mamlakatni siyosiy yuksaltirishga doir dasturlarini taraqqiyotni ta'minlovchi ahamiyatini tahlil qilishning metodologik asoslariga oid olib borilayotgan tadqiqotlar muhim ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, jadidlarning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy yuksalishining muhim rivojlanish qonuniyatlari, aniq dastur asosida amalga oshirilganligini nazarda tutsak, Xorazm jadidlari falsafasida milliy taraqqiyot masalalarining namoyon bo'lish xususiyatlari hamda kontseptual asoslarini zamonaviy taraqqiyot tamoyillari bilan uyg'unlashtirish, ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etish bugungi kunda ilmiy jamoatchilik oldida turgan dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizda jadid taraqqiyparvarlarining milliy davlatchilikni shakllantirish, ijtimoiy hayotni barqarorlashtirish, milliy o'zlikni anglash va davlat taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan mafkuraviy qarashlari bugungi kunda davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Zero "biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvarlari merosini, ma'naviy xazinasini qancha ko'p o'rgansak, qancha ko'p idrok etsak, bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topa olamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi kundagi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadilar"¹. Shu nuqtayi nazardan, har bir shaxs, xususan yoshlar ongiga milliy o'zlikni anglash va vatanga daxldorlik hissini uyg'otishda hamda O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy sohadagi islohotlar samaradorligini oshirish va bu yo'nalishdagi ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishda Xorazm jadidlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlari va dasturlari imkoniyatlaridan samarali foydalanishning ijtimoiy

¹ Qarang: Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. 4-jild. -T.: O'zbekiston, 2020. - B.33.

mexanizmlari, tamoyillari, usul va vositalarini ilmiy tadqiq qilish ehtiyojini yuzaga keltirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2021-yil 13-iyuldagi PF-6260-son “Yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” farmonlari, shuningdek, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari va 2020-yil 8-oktabrdagi F-5598-son “Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoyishi hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijlik olimlardan Adeb Xolid, A.Benningsen, Marko Buttino, E.Lazzerini, E.Ollvort, I.Baldauf, H.Komatsu, Turaj Atabaki, Shantal Kelkeji² kabi olimlar tomonidan jadidchilikning ijtimoiy mohiyati, ilmiy-falsafiy merosi, uning maydonga kelish shart-sharoitlari, milliy ozodlik harakatlari, xotin-qizlar ozodligi kabi masalalar tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari hududida A.X.Basirov, N.U.Gafarov, D.Usmanova, Ya.G.Abdullin, K.Muxamedberdiyev, R.Xodizoda, I.V.Pogorelskiy³ kabi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida esa jadidchilikning

² Adeb Khalid: *The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia*. Comparative Studies in Muslim Societies, Volume 27. (Online version) Berkeley: University of California Press, 1999. – pp.400.; Benningsen A. *Islam in the Soviet Union: the religious factor and the nationality problem*. –L., 1975.; Buttino M. *Turkestan 1917: La revolution des Russes// Cahiers du Monde Russe et Sovietique*, 31(1) 61-78, 1991.; Lazzerini E. *J. Ismail Bey Gasprinski's Perevodchik/Terciman: A Clarion of Modernism*. –Istanbul, 1992. -174 p.; Allworth E. *The Modern Uzbeks: A Cultural History*. Stanford, 1990.410 p.; Baldauf I. *Jadidism in Central Asia within Reformism and Modernism in the Muslim World// Die Welt des Islams, New Ser., Vol. 41, Issue 1. (Mar., 2001), pp. 72-88.*; Komatsu Hisao. *20 Yüzyıl Başlarında Orta Asyada Türkçülük ve Devrim Hareketleri*. –Ankara.: Turhan Kitabevi, 1993, 80 s.; Atabaki T. *Post-Soviet Central Asia*, I. B. Tauris, 1998. -342 p.; Quelquejay Ch. *The Evolution of the Muslim Nationalities of the USSR and their Linguistic Problems* Oxford, 1967.

³ Басыров А.Х. *Джадидизм: социально-философский анализ*. Автореферат диссертации кандидата философских наук. –Уфа, 2009.18 с.; Гафаров Н.У. *Джадидизм в Средней Азии в конце XIX в. - начале XX в.* Автореферат диссертации кандидата философских наук. –Душанбе, 2014. -47 с.; Усманова Д.М. *Тюркомусульманский мир: идентичность, наследие и перспективы изучения*. –Казань.: Изд-во Казан. ун-та, 2015. - 428 с.; Абдуллин Я.Г. *Джадидизм, его социальная природа и эволюция*. В кн.: *Татарская просветительская мысли*. –Казань, 1979.с.106.; Мухамедбердыев К. *К вопросу изучения истории народных советских революций в Хорезме и Бухаре 1920-1924 гг.*// *Труды Ин-та истории партии при ЦК КП Туркменистана*. Ашхабад, 1963. С.184-195.; Ходизода Р. *Махмудхужай Бехбуди: Таърихи зиндаги ва такдири таърихи у* // *Гули мурод*, 1997-1998, № 10-12.; Погорельский И.В. *Очерки экономической и политической истории Хивинского ханства конца XIX начала XX вв.* –Л.: 1968. -148 с.

siyosiy kuch sifatida rivojlanishi, tarixiy va adabiy mohiyati alohida o'rganilganligini ta'kidlash lozim.

O'zbekistonlik faylasuf olimlar A.Jalolov, A.G'ulomov, D.Amriddinova, G.Mahmudova, J.Yaxshilikov, N.Ubaydullayeva, Q.Nazarov, S.Abduvohidov, X.Ashurova⁴, tarixchi olimlar D.Alimova, D.Jamalova, H.Ziyoyev, N.Abduazizova, R.Shamsutdinov, R.Sharipov⁵, adabiyotshunoslardan B.Qosimov, S.Qosimov, U.Dolimov⁶ tadqiqotlarida Markaziy Osiyo hududida ma'rifatparvarlik g'oyalarining tarixiy, badiiy, ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tadqiq etilgan. Shuningdek, D.Tag'oyevaning ilmiy ishlarida jadidlar ma'naviy merosida oilaning o'rni, jamiyat rivojida ta'limdan keng foydalanish va ma'naviyatimizga yot bo'lgan g'oya va mafkuralar ta'siriga tushib qolmaslik uchun ota-onalarning bilim darajasini oshirish, ibratli ota-onalik ko'nikmalarini shakllantirish hamda oilaning tarbiyaviy va madaniy-ilmiy salohiyatini oshirish masalalari muhokama etilgan⁷.

Xorazm jadidchilik harakati tarixi va falsafasiga oid ma'lumotlarni A.Abdurasulov, B.Irziyev va Yu.Rahmanova, F.Ro'zimova, J.Toshqulov, M.Matkarimov O.Qo'shjonov va N.Polvonov, U.Bekmuhammad, Z.Saidjanova⁸ kabi olimlarning tadqiqotlarida uchratish mumkin. Ushbu tadqiqotlarda ko'proq jadidchilikning tarixiy-madaniy ahamiyatiga e'tibor qaratilgan.

Mazkur ilmiy tadqiqot ishlaridagi nazariy-falsafiy xulosalar tadqiqotimizga oid metodologik masalalarni belgilab olishga yordam berdi. Biroq, yuqoridagi

⁴ Жалолов А. Жадид адабиётида миллий-озодлик ва истикбол ғоялари // Ўзбек тили ва адабиёти. 1996.4-сон; Туркистон мустақиллиги ва бирлиги учун кураш саҳифаларидан. –Т.: Фан, 1996.; Ғуломов А. Жадид мутафаккирларининг экологик маданиятга доир қарашлари: тарихий-фалсафий таҳлил. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. –Бухоро, 2021.-131 б.; Амридино ва Д. Самарқанд жадидчилиқ мактаби. Монография. –Т.: Наврўз, 2017. -124 б.; Маҳмудова Г.Т. Туркистонда жадидчилиқ ҳаракати ва унинг ахлоқий-эстетик фикр тараққиётига таъсири. Фалс.фан.номз.дисс. –Тошкент, 1996. -158 б.; Яхшилик Ж.Я., Убайдуллаева Н. Жадидчилиқ ва Бехбудий. –Т.: Фан, 2004. -187 б.; Қ. Назаров ва бошқ./ Ўзбек фалсафаси тарихи. (III жилд) –Т.: Муҳаррир, 2020. -504 б.; S.Abdivohidov. Jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy jihatlarini va hozirgi zamon. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss.avtoref. -45 b.; Ashurova X. Samarqand jadidlarining ijtimoiy-siyosiy qarashlari (XX asrning birinchi choragi). Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss.avtoref. –Samarqand, 2020. -45 b.

⁵ Alimova D. Jadidchilik fenomeni. –Т.: O'zbekiston, 2022. -170 b.; Жамолова Д. Бухоро амирлигида жадидлар ва қадимчилар фаолияти. (XIX аср охири - XX аср бошлари). Монография. –Т.: Muharrir, 2021. -168 б.; Зиёев Ҳ. Россиянинг Қозон, Астрахан, Сибир, Қрим, Кавказ ва Туркистонга таъжовузи ва ҳукмронлигига қарши курашлар (XVI асрнинг иккинчи ярми - XX аср бошлари) VI жилд. –Т.: Янги аср авлоди, 2012. 604 б.; Абдуазизова Н.А. Туркистон матбуоти тарихи (1870-1917). –Т.: Академия, 2000. -240 б.; Шамсутдинов Р. Жадидчилиқ: ҳақиқат ва уйдирма. // Мулоқот. 1991. -№ 11.-Б. 19-20.; Шарипов Р. Туркистон жадидчилиқ ҳаракати тарихидан. –Т.: Ўқитувчи, 2002. -175 б.

⁶ Қосимов Б. Миллий уйғониш: Жасорат, маърифат, фидойчилик. –Т.:Маънавият, 2002.-400 б.; Қосимов С. Бехбудий ва жадидчилиқ // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1990. 19,26 январ.; Долимов У. Туркистонда жадид мактаблари. –Т.: Университет, 2006. -126 б.

⁷ Qarang: Tag'oyeva D. Jadidlar ma'naviy merosida oila.masalasi va uning falsafiy tahlili: Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. –Buxoro, 2022. -52 b.

⁸ Абдурашулов А. Хива: (тарихий-этнографик очерклар). –Т.: Ўзбекистон, 1997. -144 б.; Ирзаев Б., Раҳмонова Ю. Хоразм вилояти хогира китоби. –Т.: Akademnashr, 2019.-240 б.; Рўзимова Ф. XIX аср охири XX аср бошларида “Ёш хивалиқлар” нинг маънавий-маърифий жадидчилиқ ҳаракати. –Урганч, 2017. -128 б.; Тошқулов Ж. Ёш хивалиқлар: сиёсий қарашларининг тадрижий ривожланиши // Халқ ва демократия, 1992, 3-4-сон.; Маткаримов М. Хоразм Республикаси: давлат тузилиши, нозирлари ва иқтисоди. –Урганч, 1993. -79 б.; Қўшжонов О., Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар ҳаракатлар (XIX аср иккинчи ярми - XX аср биринчи чораги) –Т.: ABU MATBUOT-KONSALT nashriyoti, 2007. -388 б.; Бекмуҳаммад У. Хоразм ва хоразмликлар. Биринчи китоб. –Бухоро, Sadridin Salim Buxoriy, 2022. -208 б.; Саиджонов З. Жадидчилиқ ва Хоразм адабий муҳити. // Шарқ юлдузи журнали, 2016-йил, 4-сон.

tadqiqotlarda Xorazm jadidlari falsafasining milliy taraqqiyotimizda tutgan o‘rni alohida mavzu sifatida yaxlit va tizimli ravishda o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Urganch davlat universitetining ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq “Urganch davlat universitetini 2017-2030-yillarda rivojlantirish dasturi”ning 2.4-bandiga asosan “Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va ilmiy salohiyatini oshirishga yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi” doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Xorazm jadidlari falsafiy merosining milliy taraqqiyot jarayonida tutgan o‘rnini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalariga quyidagilar kiradi:

Xorazm jadidchiligi g‘oyalarining ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotiga ta’siri siyosiy, iqtisodiy, axloqiy, estetik g‘oyalar kontekstida ochib berish;

Xorazm jadidlarining ijtimoiy-siyosiy faoliyati milliy taraqqiyotimizga xalaqit berayotgan destruktiv, radikalistik, konservativ harakatlarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlash;

yoshlarning tafakkurini, dunyoqarashini rivojlantirish, ularda faol ijtimoiy pozitsiyani shakllantirish va milliy o‘zlikni anglashda Xorazm jadidlarining boy ma’naviy merosining falsafiy vorisiylikni ta’minlovchi mohiyatini asoslash;

Xorazm jadidlarining ilmiy merosida milliy taraqqiyotni ta’minlashga yo‘naltirilgan islohotlarning bugungi kundagi demokratik, erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga bog‘liqligini asoslash va ilmiy asoslangan taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obykti sifatida Xorazm jadidlari falsafasida milliy taraqqiyot masalalarining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Xorazm jadidlari milliy taraqqiyot konsepsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-ma’naviy negizlarini o‘rganish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tizimli funksional tahlil, retrospektiv tahlil, analiz va sintez, obyektivlik, tarixiylik va mantiqiylik birligi, qiyosiy tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Xorazm jadidlarini sekulyaristik (dunyoviylikka asoslangan) g‘oyalarining ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotiga ta’siri aniqlanib, uning bugungi Yangi O‘zbekistonda shakllanayotgan siyosiy, iqtisodiy, axloqiy, estetik g‘oyalar uchun konseptual asos sifatidagi xususiyati ochib berilgan;

Xorazm jadidlari ijtimoiy-siyosiy faoliyatining mazmunini tashkil qiluvchi ma’rifatparvarlik, gumanistik, bag‘rikenglik konsepsiyalari milliy taraqqiyotimizga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi diniy, etnik ziddiyatlarni oldini olishda konstruktiv omil ekanligi aniqlangan;

yoshlarda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish, ularning faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish hamda milliy o‘zlikni anglashda Xorazm jadidlari yaratgan mustaqillik, demokratiya va madaniy merosga sodiqlik kabi umuminsoniy g‘oyalarning vorisiylikni ta’minlovchi mohiyati asoslangan;

Xorazm jadidlarining ilmiy merosida milliy taraqqiyotni ta'minlashga yo'naltirilgan ijtimoiy-demokratik islohotchilik g'oyalari tarixiy zamon, ijtimoiy makonda sayqallanib, uning bugungi huquqiy-demokratik, erkin fuqarolik jamiyatini qurish g'oyalari adekvat ekanligi mantiqiy isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Xorazm jadidlari falsafasining ilmiy, ijtimoiy-falsafiy masalalari tadqiq etilgan va ulardan maxsus ma'ruzalar o'qishda, o'quv qo'llanmalari tayyorlashda, anjumanlar o'tkazishda foydalanish mumkin bo'lgan taklif-tavsiyalar ishlab chiqilgan;

O'zbekiston Respublikasida ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, insondagi ijtimoiy faollikni qo'llab-quvvatlash, innovatsion rivojlantirishni ta'minlash kabi amaliy chora-tadbirlarda Xorazm jadidlari maqsadlarining ahamiyati va milliy taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan taklif-tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyalarda, mahalliy va xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosalar, taklif hamda tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Xorazm jadidlari falsafiy ta'limotining milliy taraqqiyotni ta'minlashga qaratilganligi, yangilikka intilishi, intellektual salohiyati va inson kapitalini ro'yobga chiqarishi kabilar orqali asoslangani, shuningdek, ilmiy natijalardan, taklif-tavsiyalaridan maxsus tadqiqotlar o'tkazishda va mavzu doirasidagi keyingi tadqiqotlarda asosiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa, ishlab chiqilgan qator tushunchalar falsafa tarixi sohasidagi amaliy tadqiqotlar uchun ilmiy-uslubiy asos bo'la oladi. Ushbu tadqiqot materiallaridan kelgusida ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyatda hamda falsafa tarixi, axloqshunoslik, pedagogika, dinshunoslik fanlaridan dars berishda, ma'naviyat va milliy g'oya bo'yicha o'qitiladigan ma'ruzalarda hamda mutafakkirlarning ma'naviy merosi bilan qiziquvchilar uchun targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishda, o'quv fanlaridan o'quv qo'llanmalar va darsliklar tayyorlash mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xorazm jadidlari falsafiy merosining milliy taraqqiyot jarayonida tutgan o'rini ilmiy jihatdan asoslashga qaratilgan tadqiqot natijalari asosida:

Xorazm jadidlarini sekulyaristik (dunyoviylikka asoslangan) g'oyalarining ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotiga ta'siri aniqlanib, uning bugungi Yangi O'zbekistonda shakllanayotgan siyosiy, iqtisodiy, axloqiy, estetik g'oyalar uchun konseptual asos sifatidagi xususiyatiga oid ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalardan O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida 2020-2022-yillarda bajarilgan "Markaziy Osiyo mutafakkirlari asarlari asosida buzg'unchi g'oyalarga qarshi ma'rifiy, tarbiyaviy kurash asoslarini o'zida jamlagan multimedia dasturi hamda

mobil ilovasini yaratish” nomli FZ-202002146 raqamli amaliy loyiha ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasining 2023-yil 12-apreldagi 05-546-son ma’lumotnomasi). Natijada, Yangi O‘zbekiston yoshlarida xalqimizning boy tarixiy va milliy-ma’naviy merosini asrashga daxldorlik hissini shakllantirish hamda vorisiylik tuyg‘usini yuksaltirishga, shuningdek, ularni mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga doir dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qilgan;

Xorazm jadidlari ijtimoiy-siyosiy faoliyatining mazmunini tashkil qiluvchi ma’rifatparvarlik, gumanistik, bag‘rikenglik konsepsiyalari milliy taraqqiyotimizga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi diniy, etnik ziddiyatlarni oldini olishda konstruktiv omil ekanligiga doir taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining 2019-yil 1-noyabrdagi VI qurultoyida tasdiqlangan partiyaning 2020-2024 yillarga mo‘ljallangan saylovoldi dasturining ijrosini ta’minlashda hamda 2022-yil uchun mo‘ljallangan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar dasturida belgilangan jamiyatda oila institutini va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash maqsadida “Qadriyatlarga tayangan taraqqiyot” shiori ostidagi dasturlar ssenariysini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi markaziy kengashining 2023-yil 6-iyuldagi 02-05-41-son ma’lumotnomasi). Natijada, mamlakatimiz aholisini, xususan, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularni milliy qadriyatlarga sadoqat tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qilgan;

yoshlarda ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish, ularning faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish hamda milliy o‘zlikni anglashida Xorazm jadidlari yaratgan mustaqillik, demokratiya va madaniy merosga sodiqlik kabi umuminsoniy g‘oyalarning vorisiylikni ta’minlovchi mohiyati asoslanganligiga doir taklif va tavsiyalardan O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, yoshlar sohasidagi muammolarga samarali yechimlar ishlab chiqish, shuningdek, yoshlarni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularning axborot texnologiyalari bo‘yicha savodxonligini oshirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta’minlash vazifalarini o‘z ichiga olgan beshta muhim tashabbusni amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va Sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligining Xorazm viloyati Yoshlar ishlar boshqarmasining 2023-yil 3-iyundagi 02-10/130-son ma’lumotnomasi). Natijada, yoshlarni hozirgi vaqtda mamlakatimizda Taraqqiyot Strategiyasi negizida amalga oshirilayotgan tub islohotlar jarayonining faol ishtirokchisiga aylanib mamlakatimiz ravnaqiga hissa qo‘shadigan shaxslar bo‘lib kamol topishiga xizmat qilgan;

Xorazm jadidlarining ilmiy merosida milliy taraqqiyotni ta’minlashga yo‘naltirilgan ijtimoiy-demokratik islohotchilik g‘oyalari tarixiy zamon, ijtimoiy makonda sayqallanib, uning bugungi huquqiy-demokratik, erkin fuqarolik jamiyatini qurish g‘oyalari adekvat ekanligiga doir taklif va tavsiyalardan “O‘zbekiston” teleradiokanalining “Millat va ma’naviyat”, “O‘zbekiston yoshlari”, “Ta’lim va taraqqiyot” dasturlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali davlat

muassasasining 2022-yil 23-noyabrdagi 04-36-1949-son ma'lumotnomasi). Natijada, yoshlarda xalqimizning boy tarixiy va milliy-ma'naviy merosini asrashga daxldorlik hissini shakllantirish hamda vorisiylik tuyg'usini yuksaltirishga, shuningdek, ularni mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga doir dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola (4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, olti paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 116 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologik rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, dissertatsiya bajarilayotgan muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti va usullari yoritilgan. Shuningdek, dissertatsiya ishining ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy-amaliy ahamiyati tavsiflangan.

Tadqiqotning birinchi bobi "**Jadidchilik falsafasini tadqiq etishning nazariy–metodologik asoslari**" deb nomlanadi. Mazkur bobda jadidchilik falsafasini o'rganishda xorij va o'zbekistonlik olimlarning ilmiy, falsafiy qarashlari tahlil etiladi. Ularning yondashuvlaridagi o'ziga xos jihatlar, xususan, o'sha davrda mamlakatimiz hayotida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlar, mavjud muammolarning yechimiga qaratilgan ustuvor g'oyalar yoritib beriladi. Shuningdek, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston, Buxoro, Xorazm hududlarida jadidchilik harakati namoyondalari tomonidan ilgari surilgan g'oyalarning obyektiv va subyektiv tomonlari, ularning sabablari va oqibatlari ilmiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi.

Ushbu bobda, jadidchilik harakati milliy demokratik ruhdagi hodisa ekanligi, harakatning maqsadi o'lkadagi qoloq ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma'rifatli qilishga, jamiyat hayotida ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, marfiy va siyosiy islohotlar o'tkazishga, oxir-oqibat milliy mustaqillik g'oyalari hayotga tadbiq etishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli ekanligi ilmiy jihatdan dalillandi. Bunda qiyosiy tahlil asosida jadidchilik harakatining turli mintaqalar va hududlardagi faoliyati falsafaning: umumiylik, xususiylik va alohidalik kategoriyalari vositasida yoritildi. Mazkur harakatning paydo bo'lishi va rivojlanishiga xos xususiyatlari va belgilari ochib berildi hamda jadidchilik

falsafasiga xos ta'limotlar va qarashlarning determinatlashtiruvchi va sintezlashtiruvchi tomonlari aniq misollar vositasida ko'rsatib berildi. Jadidchilik falsafasi nihoyatda murakkab hodisa bo'lib, ijtimoiy hayotga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Shu sababdan uni o'rganishga nisbatan taraqqiyotning keyingi bosqichlarida turli xil yondashuvlar shakllangan. Ushbu tadqiqot ishimiz maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, avvalambor, "milliy taraqqiyot" va "milliy o'zlikni anglash konsepsiyasi" tushunchalarining ilmiy-nazariy va falsafiy jihatlariga to'xtalib o'tish o'rnlidir.

"Milliy taraqqiyot" ko'p qirrali tushuncha bo'lib, u jamiyatning barcha sohalarida yangi sifat o'zgarishlaridan iborat bo'lgan siljishlarni nazarda tutadi. Shu bilan birga, bu fenomen o'zining tuzilishiga ko'ra milliy ong, milliy o'z-o'zini anglash, milliy g'urur kabi tushunchalarni ham o'zida mujassamlashtiradi.

Aslida, milliy taraqqiyotni ta'minlovchi muhim unsurlardan biri milliy ong hisoblanadi. Agar milliy ong bo'lmasa, nafaqat milliy urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar, balki, ular bilan bir qatorda, millatning o'zi ham, real subyekt, ijtimoiy, etnik institut sifatida mavjud bo'la olmaydi. Demak, milliy ong va uning rivojlanishigina, xalqning millat darajasiga ko'tarilishini ta'minlaydigan asosiy omil hisoblanadi. Chunki, yetuk milliy ong zamirida milliy birlik vujudga keladi. Ana shundagina millat, yaxlit uyushgan kuch sifatida, tarix maydoniga chiqishi, o'zining milliy manfaat va maqsadlarini yuzaga keltirishi mumkin. Milliy ongning shakllanishi natijasida millat istiqboli uchun xatarli bo'lgan, milliy tarqoqlik, urug'-aymoqchilik, mahalliychilik, guruhbozlik kabi salbiy illatlar barham topadi.

Tadqiqotchi M.Ravshanovanning ta'kidlashicha, "Milliy ong milliy o'zlikni anglashning asosini tashkil qiladi. Milliy ong o'z etnik guruhiga mansublik tuyg'usi asosida shakllanadi, u irqiy namoyon bo'lish, til, madaniyat va turmush tarzidagi farqlar asosida, boshqa etnik guruhlar bilan o'zaro ta'sirda idrok qilinadi"⁹.

Falsafaning vorisiylik tamoyilidan kelib chiqsak, milliy g'urning o'sib, rivojlanib borishi murakkab, tadrijiy jarayon hisoblanib, hozirgi davrda yoshlarda milliy g'urning o'sib borishi uchun, birinchi navbatda, millatimiz madaniyati hamda qadimiy merosi, tili, an'analari, urf-odatlarini, millatimiz qadriyatlarini, uning hozirgi bosh maqsadlarini tushinishlari va bilib olishlari lozimdir. O'tmish bizlar uchun ham, boshqa xalqlar uchun ham allaqachon qaytmaydigan, ko'z o'ngimizdan olishlashgan, abadiyat mulkiga aylangan davrdangina iborat emas, balki ahamiyati hech qachon yo'qolmaydigan tag zamir va o'q ildizimizdir. O'tmish bizning tayanch nuqtamiz ekaniga shubha yo'q. Biroq, ana shu tayanch nuqtaga, ya'ni ma'naviy poydevorga tayanmasak, o'tmishimizdan kuch-quvvat, ruhiy-ma'naviy ozuqa olmasak, yuksak milliy taraqqiyotni ta'minlab bo'lmaydi.

Dissertatsiyada, hozirgi davrda dunyo ilm-fanida jadidchilik harakati, uning ijtimoiy ahamiyati va falsafiy mohiyatini o'rganish yangi izlanishlar orqali bir

⁹ Ravshanova M.M. Япония ва Ўзбекистон халқлари миллий идентиклигининг фалсафий-компаратив таҳлили. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. –Тошкент, 2022. -Б.17.

qator yoʻnalishlar asosida olib borilishi haqida ham soʻz yuritiladi. Bular quyidagi yoʻnalishlardan iborat:

Birinchi yoʻnalish, jadidchilik falsafasi va mafkurasi boʻlib, bu yoʻnalish tarixiy, siyosiy-mafkuraviy jarayonlarni qamrab oladi. Rossiya Federatsiyasining Qozon federal universiteti, Xakas davlat universiteti, Ozarbayjon Respublikasi Boku davlat universiteti, Turkiyaning Anqara va Eje universitetlarida ayni shu yoʻnalishdagi tadqiqotlarga eʼtibor qaratilgan.

Ikkinchi yoʻnalish, jadid ziyolilari koʻtarib chiqqan muammolarni qamrab oladi. Bu milliy, diniy, ijtimoiy jihatlar, til, imlo, maorif, xotin-qizlar masalalarini nazarda tutadi. Bunda masalaning muhim jihati shundaki, bu muammolarning har biri bugungi kun uchun ham oʻz dolzarbligini yoʻqotmagan.

Uchinchi yoʻnalish, jadid adabiyoti tarmogʻida sheʼriyat, nasr, dramaturgiya, adabiy tanqid masalalari oʻrganiladi. Jadidchilik harakatining gʻoyaviy asoslarini aniqlash va ularning oʻzbek jadid nasri, dramaturgiyasi, sheʼriyatida aks etishi, oʻzbek jadid sheʼriyati morfologiyasi masalalari AQSHning Kolumbiya, Michigan universitetlarida tadqiq qilinmoqda. Shuningdek, jadid adabiyoti namoyondalari, adabiy siymolarini bibliografik aspektda tahlil etish Qozogʻiston Respublikasi Yevroosiyo milliy universiteti, Turkmaniston Respublikasi Turkman jahon tillari milliy institutida yoʻlga qoʻyilgan.

Toʻrtinchi yoʻnalish, jadid matbuoti va noshirlik faoliyatiga doir tadqiqotlar Ozarbayjon Fanlar akademiyasi Adabiyot instituti, Turkiyaning Anqaradagi Hoji Bayram Valiy universitetida olib borilmoqda. Mazkur tadqiqot markazlarida jadid atamashunosligini ishlab chiqish borasida ham muayyan natijalarga erishilgan.

Beshinchi yoʻnalish, xayriya va adabiy jamiyatlar, vaqflar, fondlar faoliyati, yangi adabiy harakatlar, shart-sharoitlar AQSHning Kaliforniya universiteti va Karlton kollejida alohida tarmoq sifatida oʻrganilmoqda. Bu muhim yoʻnalish boʻlib, oʻzbek yoshlarining chet elda oʻqitilishi, yangi usul maktablari ochilishi, gazeta-jurnallar chop etilishi kabi maʼrifiy masalalar, asosan, xayriya mablagʻlari hisobidan hal etilgan.

Oltinchi yoʻnalish, jadid teatri va sanʼati, oʻzbek jadid dramasi va sheʼriyatiga bagʻishlangan ilmiy tadqiqotlar Yaponiyaning Tokio xorijiy tadqiqotlar univertiteti, AQSHning Michigan va Turkiyaning Eje universitetlarida olib borilgan. Negaki, teatr sanʼati orqali xalqni milliy ongini uygʻotish, maʼrifatli qilish, mavjud muammolarni sahna asarlarini koʻrsatish orqali xalqni mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyatga munosabat pozitsiyasini shakllantirish jadidlar qarashlarining muhim xususiyati hisoblangan.

Bizning fikrimizcha, jadidchilik falsafasini oʻrganishning dastlabki manbalari ushbu harakat namoyondalari S.Ayniy, F.Xoʻjayev, A.Fitrat, M.Behbudiy, shuningdek, rus tadqiqotchilari va maʼmurlari S.Grameniskiy, N.Ostroumov, A.Dobromislov, N.Bobrovnikov, G.Andreev, A.Samoylovich¹⁰ va boshqalarning

¹⁰ Бехбудий. Танланган асарлар. –Т.: Маънавият, 2006. Нашрга тайёрловчи, тўпловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи проф. Бегали Қосимов. –280 б.; Граменицкий С. Положение инородческого образования в Сыр-Дарьинской области. –Ташкент, 1916. С.159.; Остроумов Н.П. Мадрасы в Туркестанском крае.// ЖМНП. 1907. № 7; Бобровников Н.А. Русско-туземные училища, мектебы и медресы в Средней Азии. “Сенатская

asarlari, esdaliklari hisoblanadi. Ularda asosan, jadidchilikning paydo bo'lishi; uning rivojlanish bosqichlari; yangi usul maktablari; jadid teatri, adabiyoti, matbaachiligi; harakatning ijtimoiy-madaniy hodisa sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari tavsiflangan.

Albatta, mazkur ishlarga turli xil munosabat bildirish mumkin. Ularning ba'zi birlari diniy mazmunga ega, ikkinchilari subyektiv xarakterga ega bo'lib, ko'proq muallifning shaxsiy qarashlaridan iborat, uchinchilari esa ma'muriy tusda yozilgan bo'lib, mafkuraviy mazmun kasb etadi. Biroq, nima bo'lganda ham ular birlamchi manba sifatida o'sha davr falsafiy tafakkur tarixini, xususan, jadidchilik harakati hodisasini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etishi bilan izohlanadi.

Jadidchilik ijtimoiy-siyosiy g'oyalari, falsafiy qarashlari hamda adabiyoti mahalliy hokimiyat, keyinchalik esa sovetlar tomonidan juda qattiq nazorat va senzura ostiga olindi. Sababi, sovetlar jadidlarning harakatlarini xalqning milliy ongini oshirishga qaratilganligini juda yaxshi anglaganlar. Ammo, sovet hokimiyati bundan ustomonlik bilan foydalanib, jadidlar faoliyatini o'zlarining mustamlakachilik maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qildirdilar.

Jadidlarning ma'rifatparvarlik mafkurasi ijtimoiy jihatdan ancha boy va rang-barang bo'lib, unda hozirgi kunimizda ham jamiyatni to'lqinlantiradigan, hayajonga soladigan tarixiy vazifa va masalalar belgilangan. Millatning ma'naviy barkamollikka yetishishida dinni to'g'ri anglab olishda, huquqiy va iqtisodiy bozor munosabatlarini tashkil qilishda, taraqqiy etgan demokratik institutlarni bunyod qilishda, o'ziga xos milliy xususiyatlarni shakllantirish va rivojlantirish muhim hisoblanadi¹¹.

Jadidshunoslik bo'yicha tadqiqot olib borgan adabiyotshunos olim Begali Qosimov jadidlar uyushmasi va uning mohiyatini shunday tavsiflaydi: "Jadidchilik oqim emas, harakat. Ijtimoiy, siyosiy, ma'rifiy harakat. Yaqingacha ham u faqat ma'rifatparvarlik harakati, deb kelindi. Bu ataylab qilingan jarayon bo'lib, maqsad jadidchilikning doirasini toraytirish, sotsialistik-kommunistik mafkuradan boshqasi keng xalq ongini qamrab olishi, egallashi mumkin emas, degan soxta tushunchaning asorati edi"¹².

Jadidchilik harakatining milliy davlatchilik masalalarini tadqiq qilgan professor Rustam Sharipovning "Turkiston jadidchilik harakati tarixidan" nomli asarida jadidchilik harakatining geosiyosiy ahamiyati, milliy ozodlik yo'lida amalga oshirilgan turli pedagogik islohotlar, o'tgan davr siyosiy masalalarining tub mohiyatini anglashda, tahlil etishda o'ziga xos manba bo'lib xizmat qilishi haqida ma'lumot bergan¹³. Haqiqatdan ham jadidlar yangi milliy uyg'onishni boshlab

типография" -С.Петербург.1913, -С.90.; Андреев Г. Самаркандский журнал "Оина" и его редактор-издатель МахмудХоджа Бегбуди./ "Туркестанские ведомости", 1915, 17 сентябрь.; Самойлович А. Драматическая литература сартов. // Вестник "Императорского общества востоковедения", -Петроград, 1917, №5.

¹¹ Қаранг: Агзамжоджаев С. Жадидчиликнинг ғоявий ривожланиш босқичлари. Жадид маърифатпарварлик ҳаракатининг ғоявий асослари. "Жадид маърифатпарварларининг миллий таълим, матбуот, адабиёт ва санъатни ривожлантиришга қўшган ҳиссаси ва унинг Миллий ғоя тарғиботидаги аҳамияти" мавзудидаги Республика илмий-амалий анжумани материаллари. -Т.: Тошкент Ислон Университети, 2016-йил 15-апрел. -Б.7.

¹² Қаранг: Қосимов Б. Миллий уйғониш- жасорат, маърифат, фидойилик. -Т.: Маънавият, 2002. -Б.6.

¹³ Шарипов Р. Туркстон жадидчилик ҳаракати тарихидан. -Т.: Ўқитувчи, 2002. -Б.172.

berishdi hamda madaniyat, ta'lim tizimini ham keng ijtimoiy qatlamlarga yetkazishgan. Bular bir qator omillar asosida amalga oshdi: din va ta'lim jarayonidagi islohot, mavjud ijtimoiy tuzumga o'zgartirish kiritish hamda mumtoz adabiyotning davr bilan bog'liq holda yangilanishi kabilar aks ettirilgan.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“Xorazm jadidlari falsafasida milliy taraqqiyot konsepsiyasi”** deb nomlanadi. Mazkur bobda, milliy taraqqiyotning keng qamrovli tushuncha ekanligi, u iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy, ma'rifiy sohalarda millatning rivojlanganlik darajasini ifoda etishi, ularning birini ikkinchisidan ajratib bo'lmazligi hamda iqtisodiy farovonliksiz siyosiy sohada o'zgarish yasash mushkul ekanligi, o'z navbatida, siyosiy jabhada belgilangan vazifalarni iqtisodiyotda yuzaga keladigan inqirozlar yoki muammolar sharoitida to'liq amalga oshirib bo'lmazligi ochib berilgan. Chunki, ularning barchasi inson omili, uning dunyoqarashi, intellektual salohiyati, intilishlari, jamiyatda kechadigan jarayonlarga munosabatlari, mamlakat va millat taraqqiyoti yo'nalishidagi faoliyatlariga ko'p jihatdan bog'liq.

Xorazmdagi ma'rifatparvar jadidlar qatoriga bosh vazir Sayyid Islomxo'ja, qozikalon Boboovun Salimov, shoir Avaz O'tar, devonbegi Husaynbek Matmurodov, savdogar Polvonniyoz Hoji Yusupov, sanoatchi boy Nazir Sholikorov, matbaachi–hunarmand Otajon Abdalov, birinchi o'zbek kinooperatori Xudaybergan Devonov, mirzaboshi Muhammad Rasul, xonanda–musiqashunoslar Matyoqub pozachi, Otajon Safayev, Bobojon Yoqubov, Hakimboy Jonmuhamedov, Muhammadyor Hoji Abdullayev, Otajon Xo'janiyozov va boshqalar kirgan. Ularning safi 40 nafardan ziyod kishini tashkil etardi. Ushbu harakat vakillarining o'zaro yig'ilishlaridan biri haqida Polvonniyoz Hoji Yusupovning esdaliklarida shunday deyiladi: “...har payshanba kechasi goh qalandarxonada, goh Qorako'z masjidida, ko'pincha Husaynbek Matmurod devonbegi o'g'lining uyida yig'ilishlar o'tkazilib, unda qo'shiqlar aytishib, she'rxonlik qilishgan, erk, adolat, madaniyat va islohotga doir suhbatlar olib borishgan. Ular nafaqat adabiyot va san'at balki, madaniyat va maorif muassasalari tashkil etish, ya'ni yangi usul maktablari, kasalxona, pochta-telegraf ochish, o'quv qo'llanmalar yozish va nashr etish ishlari bilan ham shug'ullanganlar¹⁴.

Buxoro va Turkiston jadidlari o'rtasidagi bo'linish Xorazm jadidlari orasida ham bu jarayon mavjud bo'lib, bularning bir qismi mavjud tuzumni saqlab qolish (konservativ qarash tarafdorlari) ga harakat qilgan bo'lsa, ikkinchi guruh vakillari esa, liberal islohotchilik yo'lidan borganlar. Harakatning yetuk vakillaridan biri bosh vazir Sayyid Islomxo'janing tashabbusi bilan Asfandiyorxon 1910-yil sentabrda xonlik hududida islohotlar o'tkazish haqidagi farmonni imzoladi. Bu farmonga ko'ra, “12 kunlik mehnat majburiyati bekor qilinib, davlat tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlarda ishlovchilarga har kuni xazinadan 2 tanga pul to'lash, amaldorlarning xalqdan pora olmasligi, yer solig'ini aniqlash va har kimning egalik qilayotgan yer miqdoriga qarab soliq to'lashi, bozorlarda

¹⁴ Полвонниёз Ҳожи Юсупов. Ёш Хиваликлар тарихи (хотиралар). Маъсул муҳаррир М.Матниёзов. –Урганч.: Хоразм нашриёти, 1999. -Б. 79.

yig'iladigan boj va zakot solig'ini tartibga solish yo'llarini yaxshilash, temir ko'priklar qurish, pochta-telegraf, kasalxonalar qurib ishga tushirish"¹⁵ kabi vazifalarni amalga oshirish belgilangan edi. Bu islohotlarni amalga oshirish ustidan nazorat Bosh vazir (vaziri akbar) Islomxo'jaga topshirilgan. Ta'kidlash joizki, bunday islohotlarni o'tkazishdan ko'zlangan maqsad mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish hamda siyosiy boshqaruvni tartibga solishga qaratilgan edi.

Tadqiqotda, Xiva xonligida jadidchilik harakati asosan ikkita oqimdan iborat bo'lganligi borasida fikr yuritiladi. Uning o'ng oqimi xonlikda rivojlanayotgan savdo-sanoat korxonalarini egalari hamda yirik boylarning vakillarini o'ziga birlashtirgan edi. Bu oqimga xonlik bosh vaziri Sayyid Islomxo'ja boshchilik qilgan. Jadidchilikning o'ng oqimi o'z oldiga mamlakatda xon hokimiyatini saqlab qolgan holda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o'tkazish orqali erkin bozor munosabatlarining rivojlanishiga keng yo'l ochib berishni maqsad qilib qo'ygan edi. Ushbu harakatning so'l oqimi esa mayda sarmoyadorlar, hunarmandlar va xalqning turli tabaqa vakillarini birlashtirgan bo'lib, qozikalon Boboovun Salimov uning rahbari edi va ular xonlikda yangi usul maktablari tashkil qilish orqali xalq ommasining siyosiy faolligini o'stirishni maqsad qilib qo'yishgan edi¹⁶.

Xorazm jadidchilik harakatining yirik namoyondasi Boboovun Salimovning yoshligi ijtimoiy siyosiy harakatlar avj ola boshlagan XX asrning boshlariga to'g'ri kelgan va azaldan shijoatli va jur'atli bo'lganligi bois otasi vafot qilgan 1912-yildan qozikalon bo'lib faoliyat ko'rsata boshlaydi. Nafaqat lavozimiga xos yuksak islomiy e'tiqod, balki oddiy insoniy g'urur kuchli bo'lgan Boboovun fuqarolarning arz-dodini tinglash, turli janjal va shikoyatlarni adolatli yo'l bilan yechishga harakat qilgan. Biroq, feodal-monarxiyaga asoslangan, buning ustiga mustamlaka bo'lgan davlatda ijtimoiy adolat borasida so'z ham bo'lishi mumkin emasdi. Qolaversa, ba'zi ruhoniylarning mutaassibliги bois, uni o'z davrining ma'rifatparvar ziyolilari bilan yaqin aloqada bo'lishi va jamiyatdagi ilg'or taraqqiyparvar kuchlar bilan birlashib, islohotlar o'tkazishga undadi. Shuningdek, jamiyatda ro'y berayotgan salbiy holatlarni yo'qotish uchun milliy g'ururni anglab yetish lozimligini tushungan Boboovun Salimov ushbu she'rini qog'ozga tushirdi:

Xazon faslida bulbuldek,
Dil afgor o'lg'on o'xshaydur.
Jaholat dardiga barcha
Giriftor o'lg'on o'xshaydur,
Sukut aylab demas bu kun
Rost so'zni shayxulislomlar.
Xaloyiq ichra bid'atlar,
Baddiydor o'lg'on o'xshaydur...¹⁷

¹⁵ Кўшчонов О., Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар (XIX асрнинг иккинчи ярми -XX аср биринчи чораги). –Т.: АБУ МАТБУОТ-KONSALT nashriyoti, 2007. -Б.171.

¹⁶ Qarang: Shamsutdinov R., Mo'minov X. O'zbekiston tarixi. –Т.: Sharq, 2019. -Б.310.

¹⁷ Бекмуҳаммад У. Хоразмлик жадидлар. Бобоовун Салимов.(Илмий-оммабоп рисола). –Бухоро.: Дурдона нашриёти, 2023. -Б.21.

Bobooxun Salimov 1917-yilda Xiva xonligida davlat va jamiyatda islohotlar o'tkazish orqali o'zgarish qilishga intilgan so'l oqim jadidlari safiga kelib qo'shiladi. Bu paytga kelib, ya'ni 1917-yil fevralida Rossiya imperiyasi poytaxtida bo'lib o'tgan inqilobdan so'ng xonlikda Asfandiyorxonning siyosiy ta'siri ancha pasaygandi. Bu haqda naqqosh usta Abdulla Boltayev o'zining esdaliklarida yozishicha, "Bobooxun Salimov 1917-yil 5-apreldagi Ko'hna Ark oldidagi namoyishda Polvonniyoz Hoji Yusupov, Nazir Sholikorov, Husaynbek Matmurodov, Mulla Jumaniyoz Sultonmurodovlar bilan birga ishtirok qiladi"¹⁸.

1917-yil fevral oyida Rossiyada yuz bergan burjua inqilobining ta'siri o'laroq Xivada yuz bergan bu hodisada "Yosh xivaliklar" Asfandiyorxonga o'zlarining talablari aks etgan "Manifest"ni topshiradilar. Unda feodal monarxiyaga asoslangan xonlikni "Idorai marshrutiya" orqali boshqarish kabi demokratik islohotlar o'rin egallagandi.

Ushbu bobda, Xorazmdagi yangi usul maktablarining biron joyda rasmiy tasdiqlangan yagona o'quv rejasi, dasturi bo'lmaganligi borasida ham so'z yuritiladi. Darslar maktab rahbarlari va muallimlari tomonidan tuzilgan o'quv rejasi va darsliklar asosida olib borilgan. "Yangi usul" maktablariga hukumat hech qanday yordam bermagan. Natijada maktablar bolalarning ota-onalaridan har oyda olinadigan mablag' hisobiga ishlagan, muallimlarga ham shu hisobdan maosh to'langan. "Yangi usul" maktablarida may oyi oxirlarida ota-onalar va mehmonlar ishtirokida imtihonlar o'tkazilgan. Imtihonda bolalar Qur'oni Karim suralarini yod aytishni, o'zbek tilidan o'qish va yozishni, hisobdan 4 amalni o'rganganliklarini namoyish qilganlar¹⁹.

